



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




№8
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
1-avgust, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli: tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....	14
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna	
O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....	20
Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li	
Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi: xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....	25
Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi	30
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati	33
Eshmuminova Oybarchin Botirovna	
Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv	39
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari	44
Maydonova Saboxat Sadulloyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari.....	48
Mingbayeva Barno Ubaydullayevna	
Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners in English Language Classes Through Digital Technologies	52
Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna	
Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	55
Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi	
"Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida	59
Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna	
O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni	65
Umarova Feruzabonu Bobir qizi	
Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....	68
Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	72
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....	76
Boypolvonov Barot Djonqobulovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning lingvistik va lingvometodik talqini.....	81
Ismoilova Zarnigor raximjon qizi	
O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari	86
Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li	
Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri	90
Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna	
Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....	96
Koshayeva Sansabila Kamiljanovna	
Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....	100
Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati	105
Murodova Madina Karim qizi	
Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari	108
Ortiqov Mironshoh Sodiqovich	



Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish.....	110
Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna	
O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....	115
Quronboyeva Mavluda Bahodirovna	
Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika	120
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi	123
Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi	
Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	128
Yusupov Ulug'bek Kadirovich	
Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish	132
F. Zaynabuddinov	
Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза	135
Киреева Эльвина Фларитовна	

IJTIMOIIY-EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR VA TA'LIM JARAYONINING O'RNI

Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna

Andijon davlat tibbiyot instituti Akademiya litseyi
Biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida vujudga kelayotgan ekologik muammolar fonida ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda ta'lim tizimining tutgan o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – xorijiy ilg'or tajribalarni (Finlandiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya misolida) o'rganish va ularni O'zbekistonning oliy pedagogik ta'lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada ekologik ta'limning zamonaviy konsepsiyalari, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD) tomonidan ilgari surilgan ekologik barqarorlik tamoyillari, shuningdek, ekopedagogik yondashuvlarning mazmuni chuqur tahlil qilinadi. Komparativ tahlil, kontent-analiz va nazariy umumlashtirish metodlari asosida xorijiy ta'lim tizimlaridagi ekologik kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalar hamda ularning O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashuv istiqbollari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishda pedagogik ta'limning transformatsiya qilinishi, ekologik qadriyatlarga asoslangan o'quv dasturlari va interaktiv metodikalar joriy etilishi muhim ekani ta'kidlanadi. Maqola yakunida ekopedagogik modelni ishlab chiqish, o'qituvchilar malakasini oshirish, ekologik monitoring tizimini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, barqaror rivojlanish, ekopedagogika, xalqaro tajriba, pedagogik integratsiya, ekologik ong, fuqarolik mas'uliyat, ekologik qadriyatlar, oliy ta'lim, ekologik kompetensiyalar, komparativ tahlil.

Abstract: This article explores the role of the education system in developing socio-ecological culture amid the backdrop of global environmental challenges. The primary aim of the research is to examine advanced international practices (with examples from Finland, Germany, Japan, and South Korea) and identify opportunities for their integration into Uzbekistan's higher pedagogical education system. The article provides an in-depth analysis of modern concepts of environmental education, the principles of ecological sustainability promoted by international organizations (UNESCO, OECD), as well as the essence of eco-pedagogical approaches. Using methods of comparative analysis, content analysis, and theoretical synthesis, the study investigates methodologies aimed at developing ecological competencies in foreign education systems and their adaptation prospects in Uzbekistan's educational context. The findings emphasize the importance of transforming pedagogical education to cultivate socio-ecological values, implementing curricula based on ecological principles, and adopting interactive teaching methods. The article concludes with practical recommendations for developing an eco-pedagogical model, enhancing teacher qualifications, and introducing an ecological monitoring system.

Key words: socio-ecological culture, environmental education, sustainable development, eco-pedagogy, international experience, pedagogical integration, ecological awareness, civic responsibility, ecological values, higher education, ecological competencies, comparative analysis.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль системы образования в развитии социально-экологической культуры на фоне глобальных экологических проблем. Основная цель исследования – изучение передового зарубежного опыта (на примере Финляндии, Германии, Японии и Республики Корея) и определение возможностей его интеграции в систему высшего педагогического образования Узбекистана. В статье проводится глубокий анализ современных концепций экологического образования, принципов экологической устойчивости, продвигаемых международными организациями (ЮНЕСКО, ОЭСР), а также содержания экopedagogических подходов. На основе методов сравнительного анализа, контент-анализа и теоретического обобщения рассматриваются методики формирования экологических компетенций в зарубежных системах образования и перспективы их адаптации в образовательную систему Узбекистана. По результатам исследования подчеркивается необходимость трансформации педагогического образования для формирования социально-экологической культуры, внедрения учебных программ и интерактивных методик, основанных на экологических ценностях. В заключение предложены практические рекомендации по разработке экopedagogической модели, повышению квалификации преподавателей и внедрению системы экологического мониторинга.

Ключевые слова: социально-экологическая культура, экологическое образование, устойчивое развитие, экopedagogика, международный опыт, педагогическая интеграция, экологическое сознание, гражданская ответственность, экологические ценности, высшее образование, экологические компетенции, сравнительный анализ.



KIRISH

Bugungi globallashtirish sharoitida insoniyat ijtimoiy va ekologik muammolar girdobida tobora ko'proq barqaror rivojlanish yo'llarini izlashga majbur bo'lmoqda. Iqlim o'zgarishi, resurslarning cheklanganligi, demografik bosim, urbanizatsiya va sanoatlashtirish jarayonlari tabiat va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni izdan chiqarib, butun dunyo bo'ylab ekologik xavflarni kuchaytirmoqda. Bu holat aholining ekologik ongini shakllantirishni, xususan, yosh avlodga ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishni dolzarb ijtimoiy vazifaga aylantirmoqda. Shunday sharoitda ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki ekologik ongini, barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan qadriyatlarni, shuningdek, ekologik axloqni shakllantiruvchi asosiy ijtimoiy institut sifatida qaralmoqda.

"Ijtimoiy-ekologik madaniyat" atamasi ekologik tafakkur, axloq, qadriyatlar va ekologik faoliyatga bo'lgan mas'uliyatli munosabatning uyg'unligini anglatuvchi murakkab pedagogik-kasbiy kategoriya sifatida ilmiy adabiyotlarda keng qo'llanila boshladi. U nafaqat insonning tabiatga nisbatan munosabatini, balki ekologik xavfsizlik, jamiyat taraqqiyoti va fuqarolik ongining rivojlanishidagi o'zaro bog'liqlikni ham ifodalaydi. Bu tushuncha UNESCO, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilayotgan ekologik barqarorlik siyosatining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.¹ Shu bois, ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga uyg'unlashtirish ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga egadir. Barqaror rivojlanish uchun ta'lim – bu ekologik ong va faoliyatni jamiyat ehtiyojlariga muvofiq shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy jarayondir.²

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuning ilmiy asoslanganligi shundan iboratki, zamonaviy ekologik ta'lim konsepsiyalarida inson va muhit o'rtasidagi munosabatlar ekologik mas'uliyat, barqaror rivojlanish, hayot sifati va axloqiy qadriyatlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqilmoqda. Bu boradagi tadqiqotlar (A. Leopold, D. Orr, F. Capra, E. Giddens va boshqalar) ekologik madaniyatga faqat atrof-muhit muhofazasi doirasidagina emas, balki ijtimoiy ong, kommunikatsiya va harakat madaniyati sifatida yondashishga undamoqda. Shu jihatdan ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish pedagogikaning interdisiplinar sohasiga aylanib, falsafa, ekologiya, sotsiologiya va ta'lim bilan uzviy bog'lanmoqda. tadqiqotning muammosi – bu ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro ilg'or tajribalarni tahlil qilib, ularni O'zbekiston oliy pedagogik ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Zero, xorijiy tajribalarda (Finlandiya, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda) ekologik tarbiya va barqaror rivojlanishga oid pedagogik yondashuvlar ancha tizimlashtirilgan va amaliyotda samaradorligini ko'rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning maqsadi – ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni pedagogik ta'lim jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- ijtimoiy-ekologik madaniyat tushunchasining mazmunini aniqlash;
- ekologik ta'lim bo'yicha xalqaro ilg'or tajribalarni tahlil qilish;
- xalqaro yondashuvlar asosida O'zbekiston ta'lim tizimida qo'llash mumkin bo'lgan metodik modelni ishlab chiqish;
- bo'lajak pedagoglar faoliyatida ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning ilmiy-metodik asosini ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishga oid xalqaro yondashuvlarni tahlil qilish va ularning pedagogik ta'lim tizimiga integratsiya qilinishi tashkil etadi. Shu bois, tadqiqot obyekti sifatida rivojlangan davlatlarda shakllangan ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar tizimi belgilandi. Bu yondashuvlar jamiyatning ekologik xavfsizligini ta'minlashda inson omilini yetakchi deb bilgan holda, barqaror rivojlanish konsepsiyasiga asoslanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimi orqali ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan strategiyalar mazkur obyektida markaziy o'rinni egallaydi. Ekologik savodxonlik – bu atrof-muhit muammolarini anglashdan tashqari, o'z amaliy hayotini ham ushbu bilim asosida tashkil eta olish qobiliyatidir.³

Tadqiqot predmeti esa – pedagogik ta'lim tizimida xorijiy mamlakatlarning ekologik-pedagogik tajribalarini joriy etish imkoniyatlari va mexanizmlaridir. Bu predmet orqali pedagogik muhitda ijtimoiy-ekologik madani-

1 UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO, – 2017. – 62 p.

2 Gadotti, M. Education for Sustainability: A Critical Contribution to the Decade of Education for Sustainable Development // Journal of Education for Sustainable Development. – 2010. – Vol. 4, No. 2. – P. 203-211.

3 Orr, D. Ecological Literacy: Education and the Transition to a Postmodern World. – Albany: SUNY Press, 1992. – 210 p.



yatni shakllantirishga yo'naltirilgan usul va vositalarni aniqlash, baholash hamda milliy kontekstga moslashtirish ko'zda tutilgan. Barqarorlikni ta'lim orqali qo'llab-quvvatlash uchun butun o'quv tizimi transformatsiyaga muhtoj.⁴ Xususan, bo'lajak o'qituvchilarning ekologik tafakkuri, mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyati va ekologik qadriyatlariga sodiqligini shakllantirishda xalqaro amaliyotlar asosida ishlab chiqilgan didaktik yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida komparativ tahlil metodi asosiy o'rin tutdi. Ushbu metod orqali Finlandiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va O'zbekistonning ekologik ta'lim tizimlari o'zaro solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlab chiqildi. Masalan, Finlandiya maktablarida ekologik barqarorlik tamoyili asosida ishlab chiqilgan milliy o'quv dasturlari, Germaniyada esa ekologik o'zgarishlarga adaptatsiya va fuqarolik mas'uliyatini oshirishga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilindi. Yaponiya ta'limida esa ekologik axloq va urf-odatlar asosida tarbiya berish ilgari suriladi. Janubiy Koreya esa raqamli texnologiyalar yordamida atrof-muhitni kuzatish va ekologik ongni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Tadqiqot metodikasida, shuningdek, kontent-analiz usuli qo'llanilib, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, UNEP, OECD) tomonidan ishlab chiqilgan ekologik ta'limga oid hujjatlar, milliy va mintaqaviy siyosatlar, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar tahlil qilindi. Bu orqali zamonaviy ekologik ta'limning asosiy yo'nalishlari, konsepsiyalari va ta'lim jarayonidagi aks ettirilish darajasi aniqlandi.⁵ Nazariy umumlashtirish usuli yordamida turli mamlakatlarda ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, konseptual yondashuvlar, shuningdek, pedagogik tajriba natijalari tahlil qilinib, ularning umumiy tamoyillari va muhim jihatlari sistemalashtirildi. Bu esa milliy ta'lim tizimi uchun tavsiya etiladigan modelning asosini shakllantirish imkonini berdi. Bundan tashqari, pedagogik konsepsiyalarni qiyosiy tahlil qilish orqali har bir mamlakatda qo'llanilayotgan ekologik-pedagogik yondashuvlar chuqur tahlil qilindi. Bu tahlil orqali ekologik madaniyatning tarkibiy komponentlari – bilim, ko'nikma, motivatsiya, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik pozitsiyasi – qamrab olinishi ta'minlandi. Mazkur metodologik yondashuvlar asosida xalqaro tajribalarning milliy ta'lim tizimi sharoitida qo'llash imkoniyatlari aniqlanib, ularning samaradorlik darajasini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishda ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'tkazilgan komparativ tahlillar shuni ko'rsatdiki, har bir mamlakat ekologik tarbiyani o'ziga xos madaniy, siyosiy va texnologik sharoitlardan kelib chiqib tashkil etmoqda. Biroq ularning barchasida umumiy tendensiya – ta'lim tizimini barqaror rivojlantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida shakllantirish va yosh avlodga ekologik ongni tizimli tarzda rivojlantirishga qaratilganligi kuzatiladi. Yangi ekologik ta'lim modeli shaxsning o'zgaruvchan ijtimoiy-ekologik muhitga moslashuvchan, mas'uliyatli va reflektiv bo'lishini nazarda tutadi.⁶ Finlyandiya tajribasida ekologik tarbiya tabiat bilan uyg'unlikda yashash konsepsiyasiga tayanadi. Bu yurt maktablarida o'quvchilarning tabiatni bevosita kuzatish, amaliy faoliyatlar orqali ekologik qadriyatlarni o'zlashtirishlari uchun sharoitlar yaratilgan. "Forest School" modeli, ya'ni tabiat qo'ynida ta'lim berish tamoyili asosida faoliyat yurituvchi darslar nafaqat ekologik bilim, balki tabiatga emotsional bog'liqlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Finlyandiya milliy o'quv dasturida ekologik kompetensiyalar mustaqil o'quv natijasi sifatida belgilanadi va barcha fanlar kesimida integratsiyalashgan holda tatbiq etiladi. Germaniyada esa ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishning asosiy omili – bu barqaror rivojlanish pedagogikasi hisoblanadi. "Bildung für nachhaltige Entwicklung" (BNE – barqaror rivojlanish uchun ta'lim) konsepsiyasi orqali o'quv dasturlari ekologik mas'uliyat, ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlik tamoyillari asosida yangilanmoqda. Maktabgacha yoshdan boshlab fuqarolik mas'uliyati, ekologik ong va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim tizimi yaratilgan. Bu yondashuv o'quvchilarda ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.

Yaponiya tajribasida ekologik tarbiya milliy qadriyatlar tizimi, urf-odatlar, axloqiy me'yorlar orqali amalga oshiriladi. Maktab tizimida "kominkan" (ijtimoiy-ma'naviy markazlar) orqali oilaviy va jamoaviy ta'lim kuchaytirilgan bo'lib, bu yerda bolalar ekologik axloq, shaxsiy mas'uliyat, jamoaga hurmat kabi tamoyillar asosida tarbiyalanadi. Ekologik madaniyat bu yerda faqat bilish darajasida emas, balki hissiy va xulqiy ko'nikmalarga asoslangan integral sifat sifatida shakllanadi. Shu orqali tabiatga g'amxo'rlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy birdamlik singari tamoyillar yosh avlod ongiga singdiriladi. Janubiy Koreyada ekologik ongni rivojlantirishda texnologiyalarning o'zni katta. Raqamli ta'lim platformalari orqali o'quvchilarga ekologik monitoring, havoning ifloslanish darajasi, chiqindilarni boshqarish kabi mavzularni interaktiv o'rganish imkoniyati yaratilgan. Maktab dasturlarida ekologik xavfsizlik, energetik samaradorlik va "yashil texnologiyalar" konsepsiyasi alohida modullar shaklida kiritilgan. Bunda nafaqat bilim, balki ekologik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlanti-

4 Sterling, S. Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change. – Totnes: Green Books, 2001. – 108 p.

5 OECD. Green at Fifteen? How 15-year-olds perform in environmental science and geoscience in PISA 2006. – Paris: OECD Publishing, 2009. – 156 p.

6 Tilbury, D. Environmental Education for Sustainability: Defining the New Focus of Environmental Education in the 1990s // Environmental Education Research. – 1995. – Vol. 1, No. 2. – P. 195-212.



rishga e'tibor qaratiladi. Xalqaro tajribalarning umumlashtirilgan tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ta'lim tizimi ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda mazkur yondashuvlardan samarali foydalanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Yashil maktab", "Ekologik ta'limni rivojlantirish strategiyasi", "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlari asosida bu yo'nalishda dastlabki bosqichdagi amaliy qadamlar tashlangan. Shuningdek, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan fanlar (masalan, ekologiya asoslari, barqaror rivojlanish asoslari) mavjud bo'lsa-da, bu yo'nalishda xalqaro tajribalarni tizimli integratsiyalash zaruriyati sezilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston pedagogik ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirishda xalqaro amaliyotni moslashtirish imkoniyatlari mavjud. Avvalo, ta'lim mazmunini ekologik qadriyatlar bilan boyitish, o'quv jarayonini amaliy faoliyatlar bilan uyg'unlashtirish, "eko-loyihalar", "tabiatdagi sinflar", "ijtimoiy xizmatlar" kabi faol uslublarni joriy etish lozim. Bundan tashqari, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonida ekologik pedagogika bo'yicha maxsus modullar, seminar-treninglar va refleksiv mashg'ulotlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

1-jadval: Ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirish bo'yicha xorijiy va milliy tajribalar taqqoslamasi

Davlat	Asosiy yondashuv va tamoyillar	Amaliy shakllanish shakli	O'quv dasturiga integratsiyasi	Maxsus xususiyatlar
Finlandiya	Tabiat bilan uyg'un yashash, emotsional bog'liqlik	"Forest School" modeli, tabiatda darslar	Ekologik kompetensiyalar barcha fanlar orqali integratsiya qilingan	Ekologik ongni emotsional va tajriba orqali shakllantirish
Germaniya	"Bildung für nachhaltige Entwicklung" (barqaror rivojlanish uchun ta'lim)	Fuqarolik mas'uliyatiga asoslangan ta'lim	Ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy tamoyillar integratsiyalangan	Ta'lim tizimi orqali fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish
Yaponiya	Qadriyatlar va axloq orqali ekologik tarbiya	"Kominkan" markazlari orqali oilaviy-jamoaviy ta'lim	Urf-odat va madaniy meros orqali integratsiyalashgan	Hissiy, axloqiy, ijtimoiy xulq-kompetensiyalarga urg'u beriladi
Janubiy Koreya	Raqamli texnologiyalar asosida ekologik ongni shakllantirish	Ekologik monitoring, interaktiv platformalar	"Yashil texnologiyalar", energetik xavfsizlik modullari mavjud	Texnologik vositalar orqali ekologik tafakkurni rivojlantirish
O'zbekiston	Normativ-huquqiy asoslar mavjud, lekin amaliy integratsiya kuchaytirilishi kerak	"Yashil maktab", ekologiya asoslari fani mavjud	Barqaror rivojlanish komponentlari cheklangan darajada integratsiya qilingan	Xalqaro tajribalarni moslashtirish imkoniyati va zaruriyati mavjud

Ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishga oid xalqaro tajribalar bilan O'zbekistonning amaldagi ta'lim tizimi o'rtasida qator o'xshashlik va tafovutlar mavjud. Umumiy jihatdan, ko'plab mamlakatlarda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan ekologik tarbiya modeli shakllangan bo'lib, bunda ta'lim jarayoni orqali ekologik ong, ijtimoiy mas'uliyat va madaniyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. O'zbekistonda ham ekologik ta'limni takomillashtirish bo'yicha huquqiy-me'yoriy baza shakllangan: xususan, "Yashil maktab" konsepsiyasi, "Barqaror rivojlanish uchun ta'lim" bo'yicha davlat dasturlari, ekologik ta'limga oid qonun hujjatlari mavjud. Biroq xorij tajribasida ta'lim mazmuni va metodikasi ekologik ongni shakllantirishga uzviy yo'naltirilgan bo'lsa, O'zbekiston tizimida bu boradagi integratsiya hali yetarli darajada emas.

Finlandiya, Germaniya, Yaponiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarida ekologik madaniyat o'quv dasturlarining markaziy komponenti sifatida qaraladi. Ular o'quvchilarda ekologik sezuvchanlik, qaror qabul qilish malakasi va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu tajribalarning O'zbekiston sharoitida ham tatbiq etilishi mumkin. Ayni vaqtda milliy tizimda ushbu yondashuvlarga moslashtirilgan o'quv texnologiyalarining yo'qligi, ekopedagogik yondashuvlar asosida yetuk kadrlar tayyorlanmaganligi, pedagoglar malakasining bu yo'nalishda yetarli emasligi tizimli muammolar qatoriga kiradi. O'zbekiston ta'lim tizimida ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun samarali yondashuvlardan biri – bu ekopedagogik yondashuvni shakllantirish va uni ta'limning barcha bosqichlariga integratsiya qilishdan iborat. Ekopedagogika – bu ekologik qadriyatlar, global mas'uliyat, tabiatga ehtiyotkorlik bilan yondashuv va ijtimoiy adolatni ta'lim jarayonida uyg'unlashtiruvchi zamonaviy yondashuvdir (F. Capra, G. Sterling, M. Gadotti). Bu yondashuv orqali talabalarning ekologik fikrlash darajasi, refleksiv ko'nikmalari va barqaror rivojlanish haqidagi bilimlari shakllantiriladi. Shu bois ekopedagogika asosida o'quv rejalarini qayta ko'rib chiqish, faol o'qitish metodlarini (masalan, loyiha asosida ta'lim, ekologik treninglar, ekskursiyalar, muammoli vaziyatlar bilan ishlash) joriy etish zarur.

Mazkur kontekstdan kelib chiqib, bo'lajak pedagoglarning professional-etnik va ekologik mas'uliyatini shakllantirishda ta'limning roli beqiyosdir. Chunki o'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ekologik qadriyatlarni tarqatuvchi, o'rnak bo'luvchi va ekofaol shaxs bo'lishi kerak. Shuning uchun pedagogik ta'limda ekologik komponentlarni mustahkamlash, o'quv dasturlarida "Ekologik pedagogika", "Barqaror rivojlanish didaktikasi", "Ekologik axloq asoslari" kabi kurslarni joriy etish, ularni amaliy faoliyat bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari asosida bir qator taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Birinchidan, xorij tajribasini to'g'ri-dan-to'g'ri ko'chirib olish emas, balki milliy madaniyat, qadriyatlar va infratuzilmaga moslashtirish tamoyili asosida adaptatsiya qilish kerak. Ikkinchidan, ta'lim muassasalarida ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish va monitoring tizimini yo'lga qo'yish lozim. Uchinchidan, pedagoglar malakasini oshirish dasturlarida ekologik yondashuvlarni alohida modul sifatida kiritish, xalqaro tajribalar asosida milliy o'quv-metodik materiallarni yaratish zarur. To'rtinchidan, talabalarda ekologik tafakkur, reflek-siya, mas'uliyat va liderlik sifatlarini shakllantirish uchun interaktiv uslublar – ekologik forumlar, debatlar, ijtimoiy loyihalar, eko-aksiyalar kabi metodikalar keng qo'llanilishi kerak. Shunday qilib, xalqaro amaliyotni chuqur tahlil qilish va milliy tizimga uyg'unlashtirish orqali O'zbekiston pedagogik ta'limida ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishning yangi bosqichiga o'tish imkoniyati mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida aniqlanishicha, ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishda ta'lim tizimi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zero, ekologik ong, axloqiy qadriyatlar, fuqarolik pozitsiyasi va barqaror rivojlanishga bo'lgan mas'uliyat bevosita ta'lim jarayonida shakllanadi. Xalqaro tajribalar (xususan, Finlandiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya) shuni ko'rsatdiki, ekologik tarbiya samaradorligi ta'lim tizimining qay darajada integratsiyalashganligi, ekologik pedagogika tamoyillarining qanday metodik asosda qo'llanilishi va o'qituv-chilarning malaka darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu boisdan, har qanday ijtimoiy-ekologik islohotlar negizida ta'limga yo'naltirilgan strategik yondashuvlar yotmog'i lozim.

O'zbekiston ta'lim tizimida ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirish yo'lida mavjud bo'lgan huquqiy-me'yoriy asoslar va dastlabki tashabbuslarni xalqaro standartlar darajasiga olib chiqish dolzarb vazifa sifatida qaraladi. Ekologik pedagogika yo'nalishlarini kuchaytirish uchun, eng avvalo, pedagogik ta'lim dasturlariga ekologik qadriyatlar, ekologik axloq va barqaror rivojlanish tamoyillarini tizimli asosda integratsiya qilish talab etiladi. Bu jarayonda xorijiy tajribalarning bevosita ko'chirib olinishi emas, balki ularni milliy madaniyat, ta'lim muhitining o'ziga xos jihatlari bilan uyg'unlashtirish muhimdir. Shu ma'noda, ekopedagogik model, didaktik vositalar va o'qituvchilarning malakasini oshirish mexanizmlari yangi bosqichga olib chiqilishi zarur. Kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilanishi maqsadga muvofiq: birinchidan, ijtimoiy-ekologik madaniyatni shakllantirishning psixologik, axloqiy va madaniy omillarini tizimli o'rganish; ikkinchidan, ekologik ta'limning samaradorligini baholash indikatorlari va mezonlarini ishlab chiqish; uchinchidan, oliy pedagogik ta'lim muassasalari uchun milliy ekopedagogik modelni ishlab chiqish va tajriba-sinovdan o'tkazish; to'rtinchidan, barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan o'quv kurslari va amaliy faoliyatlarni talabalarning kasbiy tayyorgarlik dara-jasiga uyg'unlashtirish. Ayniqsa, talabalarning ekologik madaniyatini o'lchash, monitoring qilish va ularni real ijtimoiy-ekologik muammolar yechimi yo'lida faollashtirish yo'llarini izlab topish bugungi kunda ilmiy-pedagogik tadqiqotlar uchun yangi ufqlar ochadi. Xalqaro amaliyotni chuqur o'rganish, milliy ta'lim tizimini ekologik qadri-yatlarga yo'naltirish va pedagogik jarayonni zamonaviy metodologiya bilan boyitish orqali O'zbekistonda ijtimo-y-ekologik madaniyatning rivojlanishini ta'minlash mumkin. Bu esa nafaqat ta'lim sifatining oshishiga, balki ekologik xavfsizlik, barqaror rivojlanish va milliy qadriyatlarining uyg'unlashgan holda shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO, 2017. – 62 p.
2. OECD. Green at Fifteen? How 15-year-olds perform in environmental science and geoscience in PISA 2006. – Paris: OECD Publishing, 2009. – 156 p.
3. Tilbury, D. Environmental Education for Sustainability: Defining the New Focus of Environmental Education in the 1990s // Environmental Education Research. – 1995. – Vol. 1, No. 2. – P. 195–212.
4. Orr, D. Ecological Literacy: Education and the Transition to a Postmodern World. – Albany: SUNY Press, 1992. – 210 p.
5. Sterling, S. Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change. – Totnes: Green Books, 2001. – 108 p.
6. Gadotti, M. Education for Sustainability: A Critical Contribution to the Decade of Education for Sustainable Development // Journal of Education for Sustainable Development. – 2010. – Vol. 4, No. 2. – P. 203–211.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.